

## О'QUV MASHG'ULOTLARINI TASHKIL QILISHDA ZAMONAVIY O'QITISH TEXNOLOGIYALARI O'RNI

*Xamidova Rislig'oy Faraxadovna*

*Andijon davlat pedagogika instituti, "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida o'qituvchisi*

*Abduaxatova Shahnoza Dilmurod qizi*

*Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy- gumanitar fanlar va san'at  
fakulteti, Milliyg'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi,  
2-bosqich talabasi*

**Аннотация:** Ushbu maqolada bugungi kunda ta'lim jarayonidagi ta'limiy maetodlarning keng va samarali qo'llanilishi, ta'limning sifatini oshirish borasida olib borilayotgan islohotlar hamda mamlakatimizda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasidagi tajribalar keltirib o'tilgan.

**Калит so'zlar:** Ta'lim muassasasi, interfaol metodlar, sinf, islohot, pedagogik texnologiyalar, ko'nikma, malaka, aqliy hujum.

**Аннотация:** В данной статье широкое и эффективное использование воспитательных методов в образовательном процессе сегодня, проводимые реформы по повышению качества образования, а также опыт использования современных педагогических технологий, гарантирующих эффективность образовательного процесса в нашей стране сказала.

**Ключевые слова:** Образовательное учреждение, интерактивные методы, класс, реформа, педагогические технологии, навыки, компетентность, мозговой штурм.

**Annotation:** In this article, the wide and effective use of educational methods in the educational process today, the reforms being carried out to improve the quality of education, and the experiences of using modern pedagogical technologies that guarantee the effectiveness of the educational process in our country. 'told

**Key words:** Educational institution, interactive methods, class, reform, pedagogical technologies, skills, competence, brainstorming

Bugungi kunda mamlakatimizda ko'plab sohalar takomillashtirilmoqda va har bir jabhada maqsadli, yuqori ko'rsatkichlar sari eltadigan islohotlar amalga oshirildi. Shuningdek, ta'lim-tarbiya sohasini yuksak darajada rivojlantirish maqsadida, keng ko'lamli, aniq rejalariga asoslangan holda tizimli ishlar tashkil qilindi.. Ta'lim jarayonlarida ta'limiy metodlarning qo'llanilishi ham ta'limning sifatini oshirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

**Metod** (yunon tilida "metodos" — bilish yoki tadqiqot yo'li, ta'limot) — voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l-yo'riqlar majmuasi, falsafiy bilimlarni, tadqiqotlarni yaratish va asoslab berish usulidir. Metodning kelib chiqish tarixiga nazar tashlasak, insonlarning amaliy faoliyati bilan bog'liq jarayon hisoblanadi. Metodni egallagan kishi biror-bir ishni boshqalarga qaraganda, tez va oson bajara oladi. Metodni egallamagan kishi esa biror ishni bajarishga ko'proq harakat va vaqt sarflaydi.

Har qanday ta'limda maqsadga erishish uchun ta'lim metodlarini qo'llaydi. Ta'lim metodlarini qo'llash pedagogik faoliyatni harakatga keltiradi.

Ta'lim metodlarini tanlaganimizda, bajaradigan vazifalarini to'g'ri anglab olishimiz zarur. Jumladan, ta'lim metodlari quyidagi vazifalarni bajaradi: motivatsiyali, tashkiliy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi hamda ta'limiy vazifalardir. Ta'lim metodlarini tanlash quyidagi mezonlar asosida aniqlanadi:

- didaktik maqsad asosida;
- ta'lim mazmuni asosida;
- o'quvchining o'quv ko'nikmalarini egallash va rivojlanish darajasi asosida;
- o'qituvchining tajribasi va kasbiy tayyorgarlik darajasi asosida[1].

O'qituvchi tomonidan qo'llanilayotgan ta'lim metodlarini majmuasi boshlang'ich sinflardan yuqori sinflarga o'tish asosida o'zgarib murakkab xususiyat kasb etib boradi. Ushbu jarayonda ayrim metodlarni qo'llash chastotasi oshsa, ayrim metodlarni qo'llashga bo'lgan ehtiyoj kamayadi. Ta'lim metodlaridan foydalanish ko'lami, holati esa o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi va mahorat darajasiga bog'liq holda o'zgaradi.

Hozirda mamlakatimizdagi barcha ta'lim muassasalarida qo'llanilayotgan metodlarning afzal jihatlaridan biri yoshlarning har bir jarayonga o'zining erkin fikrlarini bayon qilish doirasini kengaytirishdan iboratdir. Shu asnda" Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar" –deydi Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov[2].

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

Interfaol metodlar-ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi turadigan metodlardir. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini har bir jarayonda faol ishtirok etishga chorlaydi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o'quvchi-talabalarning bilim, ko'nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi.

Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta'lim metodlari quyidagilar sanaladi:

1. Interfaol metodlar: "Keys-stadi", "Blist-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Muammoli ta'lim"

2. Interfaol ta'lim strategiyalari: "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rostasiya", "Yumaloqlangan qor"

3. Interfaol grafik organayzerlari: "Baliq skeleti", "BBB", "Konseptual jadval", "Venn diagrammasi", "T-jadvali", "Insert", "Klaster", "Nima uchun", "Qanday"[3]

"Aqliy hujum" metodi biror mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo'llaniladi. Mazkur metod o'quvchilarni muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritishga undaydi. "Aqliy hujum" metodi asosida tashkil qilingan mashg'ulotlar quyidagi tartibda o'tkaziladi: Muammo aniqlanadi va o'quvchilarning muammo yuzasidan fikrlarini yozuv taxtasiga yoki varaqlarga yozib boriladi. Bildirilayotgan g'oyalarning mualliflari tomonidan asoslab berilishiga erishiladi.

"Zig-zag" metodi mavzuni yanada chuqur o'zlashtirishga yordam beradi. Sinf o'quvchilari 7 guruhga bo'linadilar va nomlanadilar. Guruhlarga yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn qismlarga ajratib bo'lib beriladi. Har bir guruhdan bir lider tayinlanib mavzu matnini tushuntirib beradi. Qolgan o'quvchilar liderning fikrlarini to'ldirishi mumkin. Shu tarzda barcha matnlar mazmuni guruhlar tomonidan o'rganib chiqilgach o'quvchilar o'tilgan mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni ajratadilar, ularning o'zaro mantiqiy bog'liqligini aniqlaydilar. Bu orqali esa o'quvchilarning bilimlari yanda mustahkamlanadi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim-tarbiya borasida olib borilayotgan islohotlar o'z samarasini bosqichma-bosqich berib bormoqda. Shu bilan birga har bir ta'lim muassasasidagi dars jarayonlarida jahon tajribalaridan namunalar olgan holda qo'llanilayotgan yangidan-yangi metodlar o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini yanada oshirmoqda. Zero, yosh avlodning har tomonlama kamol topishi uchun zamon ruhiga mos yangidan-yangi qonun loyihalarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish bo'yicha loyihalar ishlab chiqish, ta'lim tizimining barcha basqichlarida sifat o'zgarishlariga erishish bo'yicha aniq chora-tadbirlar yanada kuchaytirilmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik- T.SANOSTANDART, 2017
2. <https://fayllar.org/agar> - bolalar - erkin – fikrlashni - o'rganmasa - berilgan-ta'lim-samarasi.html
3. <http://komp.info/yog'och-tuzilishi> va turlari.html p age=4